

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TOURISM

A H Hamdamov

Trainee-researcher of the Department of Digital Economy of SamSU

adonis29051992@gmail.com

Annotation:

Digital knowledge and modern information technology are one of the important conditions for development today. Digital technologies not only improve governance in the state and society, but also create greater convenience for consumers in the tourism industry. Keywords: Digital Technology, Tourism, Digital Economy, GDP, Artificial Intelligence, Secret Economy, Information Technology. Trainee-researcher of the Department of Digital Economy of SamSU AH Hamdamov THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TOURISM adonis29051992@gmail.com Annotation: Digital knowledge and modern information technology are one of the important conditions for development today. Digital technologies not only improve governance in the state and society, but also create greater convenience for consumers in the tourism industry.

Keywords: Digital Technology, Tourism, Digital Economy, GDP, Artificial Intelligence, Secret Economy, Information Technology.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarisiz hech bir sohani tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli axborot texnologiyalarining o'zni iqtisodiyotning muhim tarmog'i sanalgan turizm sohasida ham beqiyos hisoblanadi. Axborot almashinuvlar bir joyda to'xtab turmasdan muntazam takomillashgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi. Davlatimiz prezidentining 2017 yil 30 iyundagi "Respublika axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-5099 sonli Farmoni, 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shunday shiddatli davr talabiga hamohang ravishda o'z vaqtida qabul qilingan hujjat ekani bilan g'oyat ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida belgilanib, 2020-yil «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilingan edi. Boshlangan ishlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi qarori qabul qilindi.

2020 yil 28 aprel kuni Prezidentimizning **“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini **2 baravar** va ushbu sohadagi xizmatlar hajmini **3 baravar** oshirish hamda ularning eksportini **100 million AQSh dollariga** yetkazish nazarda tutilgan.

Ushbu qaror bilan, 2020-2021 yillarda joriy etiladigan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati, “Raqamli Toshkent” kompleks dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hamda 2021-2023 yillarda istiqbolli axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

Ushbu qaror bilan **Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi** raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohalarida yagona vakolatli organ etib belgilanib, Vazirlik qoshida **«Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi»** hamda **«Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi»** tashkil qilinmoqda.

Bugungi zamonda turizm sohasi raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va turizm sohasida iste’molchilarga katta qulayliklar yaratadi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o‘lishiga zamin yaratadi:

- mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi,
- ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi
- korrupsiyaga chek qo‘yadi.

Dasturning asosiy vazifasi etib shahar xizmatlarini boshqarish, ijtimoiy soha ob‘ektlari, ishlab chiqarish, yo‘l transport va kommunal infratuzilmaning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratish va keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlarida tatbiq etish belgilandi.

Darvoqe, “raqamli iqtisodiyot” atamasi milliy qonunchiligimizda ilk bor qo‘llanilmoqda. Biroq dunyo tendensiyasi shuni ko‘rsatayaptiki, barcha rivojlangan davlatlar uni shakllantirishga allaqachon kirishgan. O‘zbekiston ham mazkur jarayondan chetda qolmasligi kerak.

Agar global nuqtai nazardan qaralsa, bugun jahon iqtisodiyoti tarmoqlari, insonlar hayoti, turmush asoslari o‘zgarishi bilan bog‘liq qiziq davrni boshdan kechirmoqda. Bu barcha texnologiya, kompyuterlar internet orqali bir-biri bilan bog‘lanib borayotgani ila izohlanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda qariyb besh milliard qurilma butunjahon “o‘rgimchak to‘ri”ga ulangan. Yaqin besh yil ichida ularning soni yigirma milliardga yetishi kutilmoqda.

Ayni paytda sun'iy aql va kognitiv intellektual tizimlar jadal taraqqiy topayapti. Buning natijasida yaqin kelajakda ayrim kasblar o'z dolzarbligini yo'qotadi hamda vaqti kelib, yo'q bo'lib ham ketadi. Misol uchun, "IoT" avtomatlashtirilgan tizimi allaqachon sinovdan o'tkazilayapti. Pirovardida robotlar avtomobil haydovchilari, uchuvchilar va hatto, huquqshunoslarning ham o'rnini egallashi mumkin. Yoshlar yangi kasblar, turli texnologiyalardan foydalanish, kompyuterlar, internet, katta miqdordagi raqamli ma'lumotlarga ishlov berishga tayyor turishi kerak. Ya'ni qandaydir jarayonlar avtomatlashtirilar ekan, odamlarni boshqa, yanada dolzarb intellektual kasblarga yo'naltirish lozim. Agar bu ish qilinmasa, "raqamli uzilish" deya nomlanuvchi holat yuzaga keladi va axborot kommunikatsiya tizimining jadal rivojlanishi bilan o'tkirlashib boraveradi.

Qisqacha aytganda, bugun raqamli iqtisodiyotning ikkita vazifasi bor: amaldagi jarayonni izchil avtomatlashtirib borish hamda odamlarni o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omili sifatida baholanmoqda. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan.

Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "xufiyona iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi.

Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi.

Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi.

Oxirgi ikki yil ichida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan keng ko‘lamli va kompleks ishlar olib borildi.

Eng asosiy vazifa **“Raqamli O‘zbekiston–2030”** konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘lib, u o‘z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to‘liq hamda kompleks o‘zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhim vazifalardan yana biri davlatimiz rahbarining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlashdir. Qarorga asosan tasdiqlangan “Raqamli Toshkent” kompleks dasturida ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, kommunal sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda poytaxtimizning qiyofasini to‘liq ijobiy o‘zgartirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, 2020-2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha 268 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Mazkur vazifalarning bajarilishi yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarda raqamli texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. A.Hamdamiyov, B.Beknazarov, D.Rahmonova-“Raqamli iqtisodiyot: biznesda yangi imkoniyatlar”. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal №2 2020 yil.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <http://mitc.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi